



# Kimyogar

## 2025-YIL — “ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI”



**TABRIK!**

Aziz ishchi-xodimlar, qadrli do'stlar! Barchangizni kirib kelgan yangi 2025-yil bilan chin qalbidan tabriklayman. Kelayotgan yil barchamizga omad olib kelsin. Oilalarimizda tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat, fayzu-baraka hukm surishiga tilakdoshman.

Shuningdek, hammangizni mamlakatimiz kimyosanoatiga, korxonamiz rivojiga qo'shayotgan hissangizga o'z minnatdorchiligimni bildirib o'tmoqchiman. Yangi yil barchamizga tan sihatlik, yangidan yangi muvaffaqiyatlar hamda totuvlik yili bo'lsin.

Yangi O'zbekistonimizda yangi marralarni zabt etaylik. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin. Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz xodimlar!

Dilshod MANNONOV,  
“Farg'onaazot” AJ boshqaruvi raisi.

## ONA TABIATNI ASRASH HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZDIR

Yaxshi eslayman, o'tgan asrning 50-60 yillarida bir tup pomidor kuzgacha 20-30 kilogramm hosil berardi. Ariqlarda baliqchalar suzib yurardi. Bizning davrimizda qovun-tarvuzlar shu darajada shirin ediki, suv bilan yuvmasak labimiz labimizga, barmoqlarimiz bir-biriga yopishib qolardi. Bugun negadir daryolarda nafaqat baliqlar, balki qurbaqlar ham kamyob bo'lib bormoqda...

Orol dengizining qurishi, qurg'oqchilik va boshqa global ekologik muammolar bugun insoniyatni tashvishga solmoqda. Bu kabi ekologik muammolar bugungi kunda insoniyatdan tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni, tabiiy resurslardan unumli va tejamkor tarzda foydalanishni taqozo etmoqda. Buning uchun odamlar oddiy ekologik qoidalarga rioya qilishsa kifoya. Misol uchun, aholi vakillari o'z tomorqalaridan foydalanayotganda mineral o'g'itdan foydalanmaganlari ma'qul. Uning o'rniga begona tuproq, qum, parranda, chorva



chiqindisidan foydalanilsa, tuproq unumdorligi oshib, ekologiyaga zararining oldi olinadi. Ag'darma chopiq qilib, yovvoyi o'tning tugunagi bilan terib olib, yondirish zarur, donini donlatishdan ehtiyot bo'lgan maqsadga muvofiq. Bu orqali yer degradatsiyasi, qolaversa turli kasalliklar yuzaga kelishining oldi olinadi. Ona Yer, zilol suv, musaffo havo, go'zal tabiatni asrashga, ulardan oqilon foydalanishga har birimiz mas'ulmiz. Chunki ularga kelajak avlodning ham haqqi bor. Shuni unutmasak bo'lgani.

Qahramon NAMOZOV.



## KORXONADA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat”, - Shavkat MIRZIYOYEV.

**A**lbatta davlatni yorqin kelajagini yaratishda, taraqqiyoti va qudratini oshirishda ma'naviyatning o'rni beqiyosdir. Xalqi ma'naviyatli bo'lgan, ma'nan yuksak yurtni hech qanday kuch yenga olmaydi. Ongiga turli g'arazli mafkuralar, g'oyalar bilan ta'sir qila olmaydi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz ongini zaharlashga urinayotgan, ularga o'z ta'sir kuchini o'tkazishga urinayotgan tashqi kuchlar bilan samarali kurashishning yagona yo'li – ma'naviyatdir. Zero, jaholatga, illatlarga qarshi ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz-u, dunyo tanigan olim-ulamalarimiz foydalangan usul ham ma'naviyatdir.

Bejizga muhtaram Prezidentimiz so'nggi 10 yil davomida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni yuksaltirish, o'zbekona mafkura va g'oyalarimizni saqlab qolish borasida izchil islohotlar amalga oshirib, bir qator qarorlar imzolagan yo'q. Bularning barisi zamirida xalq farovonligi, yoshlarimiz kelajagi hamda O'zbekistonimiz barqarorligi yotibdi.

Shu o'rinda, bizning jamiyatimizda ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida “Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusida so'zlagan nutqi korxonada xodimlari va yoshlariga seminar tarzida yetkazildi.



(Davomi 2-betda).

# KORXONADA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI

(Boshlanishi 1-betda).

Haftaning har juma kuni respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan o'tkaziladigan ma'rifat soatida korxonada faol ishtirok etib, bu borada har bir sexlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida jamiyat bo'yab ma'naviyat, xotin-qizlar, yoshlar, ijtimoiy sohalar bo'yicha yo'l xaritasi tuzilib, har bir sex ma'naviyat yetakchilariga tarqatib berildi. Ma'naviyat bo'yicha mas'ul xodimlar yo'l xaritasiga ko'ra o'z sexlarida ma'naviyat soatlari o'tkazib, bu to'g'risida bayonnomalar

rasmiylashtirib bordilar.

Shu o'rinda, korxonada yangi "Odob-axloq Kodeksi" ishlab chiqilib, doimiy ravishda mehnat intizomi, "Odob-axloq kodeksi", "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" uchun tasdiqlangan oylik yo'l xaritasi ijrosi va boshqa dolzarb masalalar bo'yicha seminar va yig'ilishlar o'tkazib borildi.

Ishchi xodimlar o'rtasida "Kitobxon xodim", "Ma'naviyat bo'yicha yetakchi sex", "Zakovat", yoshlar o'rtasida "Zakovat kuizi", "Eng yaxshi insholar", "Yosh kitobxon", xotin-qizlar o'rtasida "Qizlarning sarishti" - xonodan

farishtasi!" shiori ostida "Balli qizlar", "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi", "Eng yaxshi mutaxassislarini tarbiyalagan ona", "Vatan fidoiysi onasi", "Eng matonatli ona", "Eng yaxshi tadbirkorlar onasi", "Yurt iftixorlari onasi", "Eng ibratli mehnatkash ona", "Onasiga bildirilgan eng go'zal mehr izhori", "Eng faol innovator ayol" va bir qancha ko'rik-tanlovlarni o'tkazildi.

"Ustoz-shogird" an'anasini davom ettirish maqsadida korxonada uzoq yillar faoliyat yuritib hozirgi kunda nafaqa gashtini surayotgan yoshi ulug' ustozlar bilan uchrashuv hamda davra suhbatlari halol mehnat qilib o'zidan

yorqin iz qoldirgan, hayot yo'lini jamiyat bilan chambarchas bog'lagan, boy hayotiy va mehnat tajribaga ega va albatta, kelajak avlodga o'rnak, ustoz bo'lib kelayotgan mehnat faxriylari bilan birgalikda "Ikki avlod uchrashuvi"lari tashkil etildi.

Har bir bayram, atoqli sanalar katta tadbir qilinib, chorlovlarni uyushtirildi. Bular sarasidan "Qadring balang bo'lsin, ona tilim", "Til - millat ruhi", "Alisher Navoiy so'z mulkingning sultoni", "Amir Timur buyuk sarkarda", "Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li", "Muqaddasdir Vatan bayrog'i", "Xalqlar do'stligi kuni", "Sizdan boshlanadi asli tafakkur, aziz ustozlar, sizga tashakkur", "Oila mustahkamligining jamiyat rivojida ahamiyati", "Vatanparvarlik va mas'uliyat hissi", "Ayol borki - olam munavvar", "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" va boshqa tadbirlarni sanab o'tsak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jaholatga qarshi - ma'rifat"ni qurilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan

boy ma'naviy meros o'ziga xos najot qal'asi, himoya qo'rg'oni vazifasini o'taydi. Mazkur so'zlarga amal qilgan holda "Farg'onaot" aksiyadorlik jamiyatida "Missionerlik - millat va din kushandasi", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Missionerlik - barqarorlikka tahdid", "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" dorasida soha mutaxassislari ishtirokida suhbatlar, "O'g'irlik va talon - tarojlikka qarshi kurash" mavzularida seminarlar o'tkazib borildi.

Prezidentimizning har o'yni bir kunini "Teatr kuni" etib belgilash taklifi asosida, jamiyatimiz xodimlari Farg'ona shahridagi Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi teatr va san'at saroyiga, mashhur o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning "Ufq" asari sahna ko'rinishiga, Marg'ilon shahar, Musiqali maqom teatri ijodiy jamoasi "Uvaysiy" musiqali maqom spektakllarga yuborildi.

Xulosa qilib aytganda, "Farg'onaot" aksiyadorlik jamiyatida ma'naviyat-ma'rifiy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ishlarida korxonada rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, ajratgan mablag'lari muhim rol o'ynamoqda. Ta'kidlash lozimki, ma'naviyat - hayotimizdagi muhim jabha bo'lib, u uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz joiz. Bu barcha rahbar-u, xodim, har bir fuqarolar zimmasidagi mas'uliyatdir. Zero, ma'naviyat yurt - qudrati bo'lur, qudrati yurt - aslo yengilmas!

E'zozxon ABDULLAYEVA.



## FARZANDNING OTA-ONA USTIDAGI HAQLARI

**Ota-ona rizoligini topish haqida so'z borganida, farzandlarning majburiyati, mas'uliyati haqida ko'p gapiriladi. Bu tabiiy holat. Biroq masalaning birinchi tomonida turgan ota-onalarning ular oldidagi majburiyatlari haqida chuqur va puxta bilib olinsa, bu eng birinchi bajarilishi lozim bo'lgan vazifa ekanini yodda tutilsa, ayni muddao bo'ladi.**

Zero, ota-ona o'zlarining bu vazifalarini yaxshi bilib, o'z vaqtida bajarib boradigan bo'lsalar, umrlarining ko'p qismini ahamiyatsiz narsalarga emas, balki dunyo-yu oxirlariga foydasi tegadigan xayrli amallar bilan o'tkazishga musharraf bo'ladi.

Har bir ota-ona farzandini yaxshi tarbiya ko'rinishini, odobli-axloqli bo'lishini va eng muhimi itoatgo'y bo'lib yetishishini xohlaydi. Ayrim oilalarda yetishgan o'g'il yoki qiz bolaning xatti-harakatiga, muomala-yu munosabatiga atrofda qilarning havasi keladi. Ko'ngilni ovlovchi shirin so'z yoki beminnet chiroyli xizmati tufayli nafaqat ota-onasining, balki boshqalarning ham "otasiga balli", "onasiga balli" degan duoi xayrlarini olishga muiyassar bo'ladi. Bunday farzandlarni ham oilasi uchun ham jamiyat uchun eng ko'p nafi tegadigan inson bo'lib yetishlariga shubha qilmasa ham bo'ladi. Lekin hamma oilada ham ahvol bir xil deb bo'lmaydi. Bola hali dunyoga kelmasdan boshlanadigan tarbiya jarayoniga hammamiz ham o'zimizni tayyormiz deb ayta olmaymiz. Ba'zi ota-onalarimiz tarbiya masalasining naqadar jiddiy va o'ta nozik ekanini o'z vaqtida tushunib yetmaydilar. Shuning uchun ham "tarbiyali farzand" tushunchasi ular uchun faqat orzu-havas, ayrimlari uchun armondan boshqa narsa bo'lmay qoladi. Chunki tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermaslik yoki bu ishni eng boshidan boshlab noto'g'ri olib borilishi ko'zlangan natijani bermay qo'yadi.

Kishilik jamiyatining asosiy a'zolari bo'lgan ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar har doim ma'lum tartib-qoidalar, normalar asosida tartibga solinib kelingan. Dinimiz ota-ona bo'lishlik bilan farzand ustidan cheksiz haq va huquqlarga ega bo'lish mumkin degan bir taraflama xulosaga bormaslikka chaqiradi. Ayniqsa, ularga nisbatan haddan ortiq bosim o'tkazish, qattiq nazortga olish foyda o'rninga zarar berishi aniq. Yoki hadan ortiq erkalatib boshiga qo'ndirib olish, katta bo'lyapti aqli kiradi, deb bolani o'z holiga tashlab qo'yish ham tarbiyani olib borilishida

ijobiy natijalarni bermaydi. Shuning uchun ota-onalar farzandli bo'lishlari bilan birga ularning zimmlariga bir qator jiddiy mas'uliyatlar yuklanishini unutmasliklari lozim. Chunki aynan mana shu vazifalarning bajarilishi bilan "aqlli bola", "tarbiya ko'rgan bola" tushunchalarini real hayotdagi ijrosini ta'minlashga sekin-sekin zamin yaratib boriladi.

Ota-onalarning farzandlari ustida haqlari bo'lgani kabi farzandlarning ham ularning ustidan bir qancha haqlari mavjud. Xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqadi" degan juda ham chiroyli maqol bor. Ba'zan davrlarda, suhbatlarda farzandlaridan shikoyat qilayotgan yoki norozi bo'lib gapirayotgan ayrim ota-onalarni ko'rib qolamiz. Bir qarashda hasratlarida jon bordek ko'rinadi. Bola bo'lganidan keyin ota-onani rozi qilishi kerak deyimiz. Lekin masalaga biron chuqurroq nazar tashlaganimizda biz o'zimiz farzandlarimizni aqli hali kirmagan yoshlik chog'idan boshlab, qo'ldan ish keladigan vaqtigacha qanchalik ularning tarbiyalari bilan haqiqiy shug'ullandik? To'g'ri yedirish, ichirish, kiyintirishni juda ham zo'r bo'lmasa-da, birovdan kam qilmagan holda o'rninga quygandirmiz. Lekin tarbiya degani faqat yedirish-ichirish degani emas-ku. Tarbiya degani ular so'ragan natijada achchiqlanib, baqirib javob berish ham emas.

Odob kitoblarimizdan shu narsa ma'lum bo'lmoqda, farzand tarbiyasini boshlashdan oldin ota-onalar ma'lum talablarga avval o'zlari qat'i amal qilishlari lozim ekan. Boladan bir narsani talab qilishdan oldin, avval unga shu narsa bergan bo'lishi kerak. Ayrim ota-onalar farzandlari ularni oylab, hatto, yillab hollaridan xabar olmayotganidan, mehriyning yo'qligidan nolayotganini ko'ramiz. Aqli kirmagan, nima desa xo'p deyidigan, mehrga zor bo'lgan vaqtida qancha mehrgan edi? Agar har birimiz farzandlarimiz oldidagi vazifalarimizga ikkinchi

yoki uchinchi masala sifatida emas, balki eng birinchi burchlarimizdan deb qaraydigan bo'lsak, bundan faqat va faqat o'zimiz foyda ko'rgan bo'lamiz. Ayrim oilalarda bola tarbiyasi umuman kun tartibidan o'rin olmagani, vaqti kelganda shug'ullanib, qolgan paytlarda o'z holiga tashlab qo'yiladi. Gap shundaki, ota farzandi oldidagi vazifa va majburiyatlarini ijrosiga qat'i rioya qilib, ularni o'z vaqtida bajaradigan bo'lsa, farzandining tarbiyasini o'z nazoratiga olib, uni o'ziga itoat etishiga katta yordam bergan bo'ladi.

Oiladagi ota-ona tomonidan ilk tarbiya o'z vaqtida, to'g'ri berilsa, bu albatta, ijobiy natijasi beradi. Tarbiya ko'rgan bola hech qachon ota-onasiga qarshi bormaydi. Agar aksi bo'ladigan bo'lsa, o'z farzandlaridan faqat salbiy, zararli munosabatlarni ko'rgan ota-onalar ularga qarshi duoiabad qilishgacha ham borib qoladilar.

Hech kim tashqaridan kelib farzandlarimizni tarbiyalab bermaydi, oilamizda ta'lim-tarbiya ishlarini tartibga solib bermaydi. Bu ishlar har birimiz, o'zimizning aqlu idrokimiz bilan bajaramiz. Bu jarayon otabobalarimizdan ta'lim-tarbiya yo'li orqali nasldan naslga o'tib kelayotgan odob-axloqning eng nodir gavharlari hisoblanadi. Lekin bugungi tezkor, voqealar shiddat bilan o'zgarib borayotgan 21 asrda bu an'analarni asldan uzoqlashtirmasdan saqlab qolish har birimizning muqaddas burchimiz bo'lishligini har doim yodda tutishimiz zarur. Bugungi hayot yodda tutishimiz zarur. Bugungi hayot yodda tutishimiz zarur. Bugungi hayot yodda tutishimiz zarur. Bugungi hayot yodda tutishimiz zarur.

shart. Qolaversa, bugun dunyoda

kechayotgan beqaror siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holatlar har bir millat uchun o'z kelajagiga befarq bo'lmaslikni qat'i talab etmoqda.

Bugun oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi kabi muhim vazifalarga har qachongidan ham jiddiy qarab, bu borada davlat miqyosida olib borilayotgan xayrli ishlariga yaqindan ko'makdosh bo'lib, mas'uliyatni chuqur his etgan holda harakat qilishga to'g'ri kelmoqda.

Hech bir narsa bu dunyoda abadiy bo'lmaganidek, inson ham bu foini dunyoda abadiy qolib ketmaydi. Faqat insonning bu dunyoda qoldirib ketadigan farzandlari uning naslini davom ettirib boradi. Shu bilan insonning bir umrik orzusi mana shu nasli orqali haqiqatga aylanadi. Bas shunday ekan, kelajagimiz davomchisi bo'lgan farzandlarimizga jiddiy e'tibor berishimiz, ularning oldidagi vazifa va majburiyatlarimizni to'la ado qilishimiz lozim. Shunday bo'lsa, ular o'z ota-onalar oldidagi burchlarini to'la-to'kis bajarib, roziliklarimizni olib, ikki dunyo saodatiga musharraf bo'ladi.

Dinimizda oilaga, ahlu ayol va farzandlarga bo'lgan munosabati eng chiroyli tarzda yo'lga qo'yilishiga chaqiriladi. Otalar uchun farzandlarning nafaqasi va yeyish-ichishlarini ta'minlashga qat'i buyurilar ekan, buning naqadar katta savob ekani hadislarida xabar beriladi. Jumladan, otalarning bozordan har xil shirin mevalardan sotib olib, farzandlariga berishlari yaxshi odlatlar ekanini esdan chiqarmasligimiz lozim. Chunki hadis shariflarda oilasi, bolalari uchun bozorlardan yegulniklar sotib olib kelgan otalarning yegulniklari to'kilishi xabar beriladi. Xuddi shunga o'xshash ertalabdan oilasini halol rizq bilan boqaman deb chiqib ketgan otalar uchun katta-katta ajr-savoblar va va'dalar turganini yodimizda tutib, bu ishlarini mamnu'iyat bilan bajarsak, albatta, ko'zlagan maqsadlarimizga erishamiz.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadis sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam farzandning otasi ustidagi haqi uchta ekanini marhamat qilganlar:

1. Farzand dunyoga kelganida unga chiroyli ism qo'ymoq.
2. Qur'oni o'rgatmoq.
3. Uylanish vaqti yetganda uylantirish.

Ulug'bek SULTONOVning «Ota-onaga xizmat qilish odoblari» kitobidan olindi O'MI matbuot xizmati

## SOVUQ HAVODA SHAMOLLAMASLIK UCHUN NIMA QILISH KERAK?

Ayni kunlarda yurtimiz bo'yab biroz sovuq havo kuzatilmoqda. Bunday harorat esa shamollash bilan bog'liq kasalliklarga chalinish ehtimolini birmuncha oshiradi.

Respublika epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Botir Tojiyev qish kunlarida mavsumiy xastaliklardan saqlanish bo'yicha kerakli tavsiyalari bilan o'rtoqlashdi.

— Inson organizmi turli kasalliklarga qarshi kurashishi uchun uning immuniteti mustahkam bo'lishi kerak, — deydi mutaxassis. — Biroq qish faslida aksariyat kishilarda tananing himoya tizimi biroz susayadi. Natijada shamollash bilan bog'liq kasalliklar biroz ortadi.

Shu bois, sovuq havoda, eng birinchi navbatda, gigiena qoidalariga rioya etish maqsadga muvofiq. Buning uchun ko'chadan kelganda albatta ko'llarni sovunlab yuvish shart.

Bilamizki, viruslar sovuq va quruq havoda faollashadi. To'g'ri, qish fasli atmosferada namlik nisbatan yuqori bo'ladi. Biroq xonalar isitilishi sababli havo quruqlashadi. Shu bilan birga, patogenlar toza havoni yoqtirmaydi. Ammo sovuq kunlarda eshik va derazalar zich yopilib, xonalar havosi tez-tez almashtirilmaydi.

Odamlar asosiy vaqtini issiq sharoitda, bir necha kishi yoki ko'pchilik bir joyda jamlanib o'tkazadi. Bu esa infeksiyalarning avj olishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Shu bois binolarni tez-tez shamollatish kerak. Shuningdek, D vitamini immunitet tizimining me'yoriy ishlashi uchun muhim element hisoblanib, qish faslida quyoshli kunlar kam bo'lishi bois organizm bu moddani mustaqil ishlab chiqarishi pasayadi. Natijada tananing mazkur darmondoriga ehtiyoji ortadi.

Shu sababli qishda to'g'ri ovqatlanish, ayniqsa, tarkibida S va D vitamini bor yegulniklar (baliq, jiggar, qo'shti, sut mahsulotlari, tuxum, mandarin, kivi, qorag'at (smorodina), quritilgan anjir, limon, malina kabi mevalar, petrushka, o'simlik yog'i va tabiiy apelsin sharbatini) ko'proq iste'mol qilish lozim. Kunlik taomnomaga oqsilga boy oziq-ovqatlar (dukkakli mahsulotlar, yormalar, mol va parranda qo'shti)ni kiritish maqsadga muvofiq.

Qolaversa, vitaminlar shamollashning samarali profilaktikasi hisoblanadi. Ular immunitet tizimini mustahkamlaydi va viruslarga qarshi turish uchun juda muhim. Masalan, B vitaminlari (B1, B2, B6, B12) leykotsitlar faolligini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida tananing sovuqqa chidamligini oshiradi. Shu bois tarkibida ushbu vitaminlar ko'p bo'lgan qo'sht, baliq, jiggar, dukkaklilar, asal va yong'oq kabi mahsulotlarni yeyish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, sovuq paytda ob-havoga mos kiyinish kerak. Birinchi navbatda, sharf taqishni unutmaslik zarur. Boisi u bo'yindagi qon tomirlarini issiq saqlab, miyaga issiqlik yetib borishini ta'minlaydi. Turarjoy va ofislar hamda jamoat binolarida esa harorat rejimiga rioya qilish lozim.

Yana bir jihat shuki, aksariyat insonlar sovuq payti kamharakat bo'lib qoladi. Bu esa immun tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aslida qish payti jismoniy harakatni ko'paytirish orqali tanani chinqitirish juda muhim.

Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati.



2025  
ГОД —

ГОД ЗАЩИТЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И «ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ»

КАКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРОИЗОЙДУТ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ СТРАНЫ В НОВОМ ГОДУ

**НОВЫЕ МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ**

При трудоустройстве, самозанятости, налаживании предпринимательской деятельности официально не занятыми членами семей, получающих пособия и матпомощь на детей из малообеспеченных семей, выплата данных пособий и матпомощи продлжается до окончания срока их выплаты, но не более 6 месяцев.

Также на члена семьи, включенной в Реестр бедных семей, трудоустроившегося на работу с ежемесячной зарплатой в размере не менее 1,5 МРОТ, социалог уплачивается по ставке 1% в течение 3 лет.

**ВВОДЯТСЯ НОВЫЕ ФОРМЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ, ПОДГОТОВЛЕННОЙ ПО НСБУ И ПО МСФО**

Вступает в силу Положение о сроках предоставления финансовых отчетов, их структуре и содержании (финансовая отчетность за 2024 год будет представляться по новым правилам).

Положение устанавливает сроки представления финансовой отчетности:

- по НСБУ - не позднее 1 марта года, следующего за отчетным. Ранее финотчетность представлялась не позднее 15 февраля. Теперь срок - более удобный, так как совпадает со сроком представления Расчета налога на прибыль;
- по МСФО - не позднее 1 мая года, следующего за отчетным.

**Льготы для бедных семей**

Дети из бедных семей будут приниматься в государственные дошкольные образовательные организации на льготной основе.

**НОВЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОЗДАНИЮ БЕСПРЕПЯТСТВЕННОЙ СРЕДЫ**

Для выдачи лицензии в сфере образовательных услуг, банковской, медицинской, фармацевтической деятельности и деятельности кредитного бюро требуется заключение Инспекции по контролю в сфере строительства и жилищно-коммунального хозяйства о создании на объекте беспрепятственной среды для лиц с инвалидностью.

**САНКЦИИ ЗА ЗАДОЛЖЕННОСТЬ ПО ВЫВОЗУ МУСОРА**

Вводится временное ограничение приема платежей за электроэнергию у абонентов в случае неоплаты за услуги по обращению с отходами. Ограничение вводится во всех регионах республики за месячную задолженность по вывозу мусора.

**В РАЙОННЫХ ПОЛИКЛИНИКАХ ПОВЯТСЯ НОВЫЕ ШТАТНЫЕ ЕДИНИЦЫ**

Вводятся штатные единицы в районных (городских) многопрофильных центральных поликлиниках за счет штатных единиц, оптимизированных в системе здравоохранения: врач акушер-гинеколог для кабинета онкоконтроля; рентген-лаборанты для организации в две смены работы мобильных и стационарных маммографов.

**ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ НАДБАВКИ ПЕДАГОГАМ**

В общих средних образовательных учреждениях системы Министерства дошкольного и школьного образования станет выплачиваться ежемесячная дополнительная надбавка в размере 50% тарифной ставки педагогическим кадрам, имеющим сертификат соответствующего уровня по предметам родного языка, литературы и истории, полученный в национальной системе оценки Агентства по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций, и преподающим эти предметы.

**ОНЛАЙНОВАЯ МЕДИАЦИЯ ТРУДОВЫХ СПОРОВ**

Внедряется система усиления защиты трудовых прав и охраны труда работников, дальнейшей поддержки сбалансированных трудовых отношений между работодателями и работниками, решения трудовых споров методом медиации в форме видеоконференцсвязи.

**ГОСУДАРСТВО КОМПЕНСИРУЕТ УБЫТКИ ПРИ ПЕРЕВОЗКЕ ПЕШЕХОДАМИ**

Убытки, понесенные от оказания услуг перевозки пассажиров поездами на местных направлениях (за исключением перевозки пассажиров на высокоскоростных и скоростных поездах), станут компенсировать за счет Госбюджета.

**ВВОДИТСЯ ЛИЦЕНЗИОННЫЙ ПОРЯДОК ДЛЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РЕАЛИЗАЦИИ ЛОМА**

Вводится лицензионный порядок деятельности по заготовке, переработке и реализации лома и отходов черных и цветных металлов, а также оптовой и розничной торговли природным газом и электроэнергией.

**ЗАКУПАТЬ ФАРМПРОДУКЦИЮ БУДУТ ЦЕНТРАЛИЗОВАННО**

Закупка всеми медицинскими учреждениями фармацевтической продукции, закупаемой в централизованном порядке, поэтапно переводится на централизованный порядок.

**ИЗМЕНЯЕТСЯ ПОРЯДОК ФОРМИРОВАНИЯ КВОТЫ НА ПОДГОТОВКУ КАДРОВ**

Квота на подготовку кадров на основе госзаказа выделяется негосударственным вузам согласно их позиции в рейтинге. Также будет вестись рейтинг высших образовательных организаций в разрезе сфер образования.

КАК ПРОХОДИЛ МЕСЯЦ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИИ

Мероприятия, приуроченные Месяцу пожарной безопасности, продолжались на предприятии и в первой половине декабря. В этом важном мероприятии были задействованы практически все структурные подразделения общества. Непосредственными организаторами учебно – тренировочных занятий выступили: Управление промышленной безопасности, Спасательный отряд предприятия при тесном взаимодействии с отделом по организации пожарной безопасности зданий АО «Farg'onaazot» УЧС Ферганской области. Целью проведения данных мероприятий было предупреждение пожаров и других чрезвычайных ситуаций на предприятии.

Так, в частности, 4 - 6 декабря текущего года, на территории I-промышленной площадки состоялись мероприятия, на котором приняли участие рабочие и служащие Автотранспортного цеха, цеха Аммиак-3, цеха Централизованного ремонта оборудования, цеха Централизованного ремонта электрооборудования, Комплекса складов I-промышленной площадки, цеха Хлорат-магнезиового дефоланта, цеха по заготовке и сдаче металлолома. На выставке были представлены образцы пожарной техники и оборудования.

Такое же мероприятие было проведено 11 декабря текущего года, на территории II-промышленной площадки на котором приняли участие рабочие и служащие цеха по производству аммиачной селитры (АС-72М), цеха по производству неконцентрированной азотной кислоты



(АК-72М), цеха по производству мочевины, Котельного цеха, Комплекса складов II-промышленной площадки. В ходе мероприятия были представлены образцы пожарной техники и оборудования, а также были продемонстрированы методы применения первичных средств пожаротушения, проведена разъяснительная работа среди работников цехов, где были подробно рассмотрены причины возникновения пожаров и чрезвычайных ситуаций, а также способы действий в таких ситуациях.

Также в рамках «Месячника пожарной безопасности» и в соответствии с Постановлением Кабинета Министров Республики Уз-



предстояло продемонстрировать практические навыки тушения пожара с использованием огнегасителей, а также теоретические знания в области пожарной безопасности. Жюри оценивало, как правильность выполнения заданий, так и строгое соблюдение мер безопасности.

Конкурсная борьба была напряженной, и компетентному жюри предстояло выбрать лучшую команду. По итогам конкурса победителями были признаны:

- \* 1 место: команда цеха ХМД;
- \* 2 место: команда цеха Соды;
- \* 3 место: команда цеха Аммиак-3.



бекистан «О мерах по повышению эффективности противопожарной профилактики и совершенствованию государственного контроля в сфере пожарной безопасности» на нашем предприятии состоялся конкурс «Отличник пожарной безопасности».

В конкурсе приняли участие команды, сформированные из рабочих и служащих цехов предприятия. Командам-участникам

КАК УКРАСИТЬ ПРАЗДНИЧНЫЙ СТОЛ

Восточная система исцеления считается самой точной и используется многими людьми для изучения своей личности, планирования будущих действий и принятия важных решений в жизни. В преддверии нового года перед каждым из нас встает вопрос – «Как встретить новый год? Как украсить праздничный стол?» и в этом хорошем генераторе идей может послужить именно восточный календарь. Как известно, по восточному календарю наступающий 2025 год будет годом Зелёной Деревянной Змеи, если при украшении новогоднего стола и приготовления праздничных блюд, мы воспользуемся персонажем Змеи из восточного календаря, это будет выглядеть великолепно и оставит неизгладимое впечатление у ваших домочадцев и гостей. К вниманию наших читателей представляем несколько салатов.



**САЛАТ «ЗМЕЯ»**

Представляем Вашему вниманию ещё один интересный салат «Змея» с курицей, плавленым сыром, яблоками и орехами. Интересное сочетание куриного филе с плавленым сыром, яйцами, орехами и яблоками. Салат выкладывается на блюдо в виде символа Нового года 2025 - Змеи. Маслины и маринованные огурцы не только украшают блюдо, но и гармонично дополняют его вкусовую палитру.

Итак, для приготовления салата потребуются следующие ингредиенты: Куриное филе - 400 г; Яйца - 3 шт.; Сыр плавленый - 210 г; Яблоко кисло-сладкое - 300 г; Орехи грецкие - 100 г; Лук репчатый - 135 г; Лимон - 115 г; Майонез - 120 г;



Лавровый лист - 1-2 шт.; Соль и перец чёрный молотый по вкусу. Также для украшения салата будет необходимо: - огурцы маринованные-180 гр.; - маслины без косточек - 30гр.; - петрушка 1-2 веточки.

Салат «Глаз Змеи» с курицей, ананасами и кукурузой. Новогодний салат «Глаз Змеи» получается сочным и интересным на вкус, благодаря сочетанию нежного куриного

филе, а также добавлению сладкого ананаса и кукурузы. Яркий контраст вкусов, цветов и эффектное оформление к году Змеи сделают этот салат настоящим украшением новогоднего стола.

Для приготовления салата потребуются следующие ингредиенты:

- куриное филе – 300 гр.;
- ананасы консервированные -200-250 гр.;
- кукуруза консервированная – 150 гр.;
- сыр твёрдый – 100 гр.;
- яйца – 3 шт.;
- майонез – 110 гр.;
- маслины 3-5 шт.;
- лук зелёный (для украшения) -10-15 гр.;
- лавровый лист – 2 шт.;
- соль по вкусу.

Куриное филе выкладываем в кипящую воду и отвариваем 20-25 минут, до готовности. Готовое филе оставляем остывать. Если время позволяет, можно остудить филе в бульоне. Яйца варим вкрутую (8 минут после закипания) и остужаем в холодной воде. Ананасы нарезаем маленькими кубиками. Выкладываем ананасы в миску. Если ананасы очень сочные, можно немного отжать их от сока. Отварное куриное филе нарезаем маленькими кусочками и добавляем к ананасам.



Твёрдый сыр натираем на крупной тёрке и добавляем в миску. Примерно 1,5 ст. ложки кукурузы оставляем для оформления салата. Остальную кукурузу добавляем в миску. Добавляем 60 г майонеза. Много майонеза добавлять не стоит – салат должен быть в меру сочным, но не плавающим в майонезе. Перемешиваем и досаливаем салат по вкусу. На блюдо устанавливаем сервировочное кольцо (у меня кольцо диаметром 16 см). В кольцо выкладываем весь салат, немного прижимаем и разравниваем поверхность. Яйца очищаем, белки отделяем от желтков. Натирем отдельно белки и желтки на мелкой тёрке. Выкладываем на салат слой белков. Смазываем белки оставшимся майонезом. Равномерно распределяем майонез и чуть утрамбовываем слой белков. Удобно это делать силиконовой лопаткой. Из кукурузы выкладываем контур глаза змеи. Желтки равномерно выкладываем внутри контура глаза. Мне понадобилась половина желтков. Маслины нарезаем пополам. Из кусочков маслин формируем зрачок. Аккуратно снимаем сервировочное кольцо. Мелко нарезаем зелёный лук и украшаем салат на тарелке по кругу. Также можно украсить салат оставшимися желтками. Салат «Глаз Змеи» готов. Можно подавать на праздничный стол. Приятного аппетита и праздничного настроения!

**САЛАТ «ЗМЕЙКА»**

Для приготовления данного салата необходимо отварить 4 – шт. картофеля средних размеров и 4 – шт. яйца. Открыть две 200 граммовые банки горбуши выложить в тарелку и размять вилкой. Далее, 3 шт. плавленых сырков, готовые картофель и яйца натереть на тёрке, затем все ингредиенты смешать с майонезом. Готовую массу выложить в тарелку в виде змейки и украсить салат «Змейка», маслинами или маринованными огурчиками.





## ПРАЗДНИЧНЫЕ ДНИ В 2025 ГОДУ!

МИНИСТЕРСТВО ЗАНЯТОСТИ ОПУБЛИКОВАЛО ГРАФИК ПРАЗДНИЧНЫХ ДНЕЙ НА 2025 ГОД:

**1 января** – Новый год;  
**8 марта** – Международный женский день;  
**21 марта** – Праздник Навруз;  
**31 марта** – Рамазан Хаит (Ид аль-Фитр);  
**9 мая** – День памяти и почестей;  
**7 июня** – Курбан Хаит (Ид аль-Адха);  
**1 сентября** – День независимости;  
**1 октября** – День учителя и наставника;  
**8 декабря** – День Конституции.



## ПО СЛУЧАЮ ДНЯ КОНСТИТУЦИИ ПРОВЕДЕНО ТОРЖЕСТВЕННОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

8 декабря — особенная дата для Узбекистана: в этот день страна отмечает День Конституции, символизирующий независимость, суверенитет и приверженность демократическим ценностям. Принятая 8 декабря 1992 года, Конституция Республики Узбекистан стала основой для политических, экономических и социальных преобразований, направленных на построение справедливого и процветающего общества. При её принятии приоритетными были интересы народа и ценность человеческой жизни. Эти основополагающие принципы нашли своё отражение и в преамбуле Конституции Республики Узбекистан, где подчёркивается: «... ставя целью обеспечение достойной жизни граждан, межнационального и межконфессионального согласия, благополучия и процветания многонационального родного Узбекистана, принимаем и провозглашаем настоящую Конституцию».

5 декабря, в актовом зале предприятия, состоялось праздничное мероприятие, посвященное 32-й годовщине принятия Конституции. Мероприятие открыл с приветственным словом председатель правления общества Дилшод Маннонов. Затем прозвучал государственный гимн Узбекистана в исполнении военного ор-


кестра Восточного военного округа.

На торжественном мероприятии принял участие заместитель начальника отдела прокуратуры Ферганской области Мухсинжон Гоиров. Который в своей речи особо подчеркнул, что Конституция Республики Узбекистан является ярчайшим проявлением политико-правового

мышления нашего народа, надёжным гарантом прав и свобод человека, чему свидетельствует принцип «Человек – общество – государство», взятый за основу в обновленной Конституции, так как в каждой статье отражены достоинства, права и свободы человека. Выступавший также отметил, что в обновленной Конституции состоящей из 6 разделов, 27 глав и 155 статей, особое внимание уделено социальным вопросам, также подчеркнута роль государства в проявлении заботы семьям и детям, нуждающимся в социальной защите.

В ходе мероприятия состоялись показательные выступления почётногo караула, а также был продемонстрирован видеоролик, посвященный истории и этапам формирования Конституции, который вызвал живой интерес у участников мероприятия.

Завершилось торжественное мероприятие церемонией награждения победителей смотра-конкурса «Ведущий цех по духовно-просветительской работе», проходившего среди цехов общества.



### ВОПРОСЫ:

#### ПО ГОРИЗОНТАЛИ:

- Новогодний персонаж с Дедом Морозом
- Снежная фигура из сказки
- Что под ёлку кладут?
- Название украшения ёлки
- В какой стране Новый год отмечают с драконами?
- Какой цвет белья надевают в Италии на Новый год?

#### ПО ВЕРТИКАЛИ:

- Какой фрукт принято есть в Испании под бой курантов?
- Где живёт Санта Клаус (Дед Мороз)?
- Как называется традиционное новогоднее блюдо из рыбы в Японии?
- Время суток, когда встречают Новый год
- В какой стране Новый год празднуют на пляже?

■ Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.



## ЗАВОДСКОЙ МНОГОТИРАЖКЕ 46 ЛЕТ!

1-го января редакция газеты «Кимёгар» отмечает 46-летнюю годовщину со дня основания заводской газеты АО «Farg'onaazot», которая последние 33 года гордо носит название «Кимёгар». Это событие не просто историческое, но и в какой-то мере и знаменательное. Столь старого по возрасту издания заводской газеты в городе, да и по всей области, наверно, сегодня трудно отыскать. Как у любого другого периодического издания, у газеты «Кимёгар» есть своя история и свои традиции. Инициаторами издания заводской многотиражки в своё время выступили директор Ферганского завода азотных удобрений (так в конце 70-х годов назывался АО «Farg'onaazot»-прим. редактора) Саттор Якубов и секретарь первичной партийной организации Туланбой Хамдамов. В становлении газеты большую роль сыграли журналисты газеты «Коммуна» (ныне «Фаргона хақиқати») Воғиз Музаффаров, Акрам Камбаров, с ними руководство предприятия обсуждало вопросы связанные с названием газеты, темы публикуемых материалов, привлечение авторитетных авторов и многие другие организационные вопросы, связанные с будущей газетой. Учитывая, что на предприятии трудится многонациональный коллектив было решено издавать газету на русском и узбекском языках.

Отрадно что ровно 46 лет тому назад 1 января 1979 года был выпущен первый номер заводской многотиражки «Кимёгар». Беря с благоговением в руки этот номер пожелтевший со временем газеты, интересно узнать о чём писали тогда. Так в первом номере были напечатаны поздравления редакций газеты «Коммуна» и «Ферганская правда», статьи директора завода С. Якубова, начальника цеха аммиачного производства М. Нишоновна, депутата Л. Муравлёвой, начальника цеха регенерации уксусной кислоты М. Махмудова.

Сейчас по прошествии 45 лет можно

смело утверждать, что на страницах газеты в той или иной мере отражены этапы развития не только предприятия, но и этапы развития всей химической промышленности Узбекистана. Многоотомные подшивки, хранящиеся в заводской библиотеке, являются свидетельством событий тех лет. Газета «Кимёгар» всегда была актуальна, рассказывала своим читателям чем живёт трудовой коллектив предприятия, об успехах и проблемах, о лучших людях и знаменательных событиях. Корреспонденты газеты в своих статьях старались освещать все стороны многогранной жизни одного из крупнейших предприятий химической промышленности Узбекистана, для этого затрачивалось

много творческих сил и энергии. И в этой связи необходимо упомянуть об Акраме Камбаров, Алесандре Орешкине, Абдусаломе Эргашеве, Тухтасине Азимове, Исроилжоне Иброхимове, Музаффар Маматкулове и Рустаме Мамажонове, которые в разные годы, осуществляли редакторскую деятельность в газете «Кимёгар». С 2021 года редактором назначена Эъзозхон Абдуллаева. В настоящее время редакция работает под её руководством. Продолжая славные традиции своих предшественников, сохраняя всё то хорошее, интересное чем радовала заводчан всё это время газета редакция сегодня на страницах газеты старается освещать передовой опыт труда, методы повышения эффективности производства, экономии материальных ресурсов, рост производительности труда и многие другие вопросы. На современном этапе развития информационно-коммуникационных технологий, помимо традиционных средств распространения печатной продукции, активно задействован Интернет, так на странице официального сайта предприятия своевременно публикуется электронная версия газеты. Это способствует увеличению числа читателей газеты. На сегодняшний день в газете трудятся корреспондент Отабек Бегиджанов и фотокорреспондент Миржалол Гуломназир.

**Kimyogar**



**MUASSIS:**  
«Farg'onaazot»  
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

**Bosh muharrir:**  
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,  
Farg'ona shahri,  
Sanoat ko'chasi, 222.  
«Farg'onaazot» AJ.  
Tel.: 242-66-01; 65-33

Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi. Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: \_\_\_-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 1.01.2025-yil.

Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.  
Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.

Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.